DISBAKTERIOZNI DAVOSI VA PROFILAKTIKASI

Sadullayev O.Q., Saidov B.O.
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti

Received: 13.11.2025
Revised: 14.11.2025
Accepted: 15.11.2025
Kalit so'zlar:
Disbakterioz, ichak florasi, mikrobiom, patogenez, diagnostika, davolash usullari, mikrobial balans, profilaktika, mikroorganizmlar, antibiotiklar, ichak disbiozi.

Annotatsiya. Mazkur maqola "Disbakterioz: sabablari, patogenez va davolash usullari" mavzusida bo'lib, kasallikning mikrobial tizimi, patogenezini va davolash usullarini tahlil qiladi. Disbakterioz ichak florasining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, organizmning normal faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada kasallikning asosiy sabablari, ilg'or diagnostika va davolash usullari hamda profilaktik choralar muhokama qilinadi. Tadqiqotda mikrobial balansning ahamiyati, davolashning samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlar taqdim etiladi.

Keywords:
Dysbiosis, intestinal flora, microbiome, pathogenesis, diagnostics, treatment methods, microbial balance, prevention, microorganisms, antibiotics, intestinal dysbiosis

Abstract. This article, titled "Dysbiosis: Causes, Pathogenesis, and Treatment Methods," analyzes the microbial system, pathogenesis, and treatment methods of the disease. Dysbiosis is associated with the disruption of the intestinal flora and negatively affects the normal functioning of the organism. The article discusses the main causes of the disease, advanced diagnostic and treatment methods, as well as preventive measures. The study highlights the importance of microbial balance and presents new approaches to improving treatment effectiveness

Ключевые слова:
Дисбактериоз, кишечная флора, микробиом, патогенез, диагностика, методы лечения, микробный баланс, профилактика, микроорганизмы, антибиотики, кишечный дисбиоз.

Аннотация. Данная статья под названием "Дисбактериоз: причины, патогенез и методы лечения" анализирует микробную систему, патогенез и методы лечения заболевания. Дисбактериоз связан с нарушением кишечной флоры и негативно влияет на нормальную деятельность организма. В статье рассматриваются основные причины заболевания, передовые методы диагностики и лечения, а также профилактические меры. Исследование подчеркивает важность микробного баланса и представляет новые подходы к повышению эффективности лечения.

Ichak mikroflorasi balansining buzilishi natijasida yuzaga keladigan, mikrobiomaning organizmga bo‘lgan ijobiy ta’sirining susayishiga olib keladigan patalogik holat disbaktorioz hisoblanadi. Kasallik inson organizmida turli xil

mikroorganizmlarning (bakteriyalar, zamburug‘ va boshqalar) nisbatining o‘zgarishi va ularning normal o‘sish va faoliyatini buzishi bilan bog‘liq bolib, disbakterioz, asosan, ichakning mikrobiologik ekotizimini, ya'ni uning mikroorganizmlarni o‘z ichiga olgan tabiiy tizimini buzadi, bu esa ichakning shilliq qavatining yallig‘lanishiga, immunitet tizimining pasayishiga, ovqat hazm qilish jarayonlarining buzilishiga va umumiy sog‘liq holatining yomonlashishiga olib keladi. Disbakteriozning rivojlanishiga turli omillar sabab bo‘lib,ularga noto‘g‘ri ovqatlanish, antibiotiklar va boshqa dori-darmonlarni noto‘gri qo‘llash, stress va ekologik sharoitlar kiradi. Xozirgi davrda bu kasallikning tashxisi va davolash usullari keng tarqalgan bo‘lib, turli ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda ilg‘or metodlar qo‘llanilmoqda. Ammo, kasallikni erta aniqlash va samarali davolash bo‘yicha to‘liq birlashtirilgan yondashuvlar hali ham talab etiladi.Xozirda disbakterioz ilmiy nuqtai nazardan tibbiyot fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi[1,5,10,13,16,18,20,28,29]. Bu ichak florasining buzilishi natijasida rivojlanadigan patologik holat va uning ta’siri organizmning umumiy sog‘liq holatiga jiddiy zarar yetkazadi. Ichak mikrobial tizimi sog‘lom holda ishlaganda, organizmda zarur oziq moddalari so‘riladi, toksinlar esa chiqarib yuboriladi. Biroq, ichakdagi mikrobiomning buzilishi, ya’ni disbakterioz rivojlanishi bilan bu jarayonlar zaiflashadi va organizmning to‘g‘ri ishlashi uchun zarur bo‘lgan mikrobial balans buziladi va mikrobiomaning o‘zgarishi insonning umumiy salomatligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Organizmda ichak mikrobiotasi, uning balansining saqlanishi organizmning umumiy holatini belgilovchi muhim faktor bo‘lib xizmat qiladi. Disbakterioz, shuningdek, ichakdagi zararli va foydali bakteriyalar o‘rtasidagi nisbati o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Ichak florasining buzilishi orqali ko‘plab ichak va oshqozon-ichak traktidagi kasalliklar, shuningdek, immunitetning susayishi va vitaminlar ishlab chiqarishning kamayishi kuzatiladi.Noto‘g‘ri ovqatlanish, ayniqsa yog‘li va qayta ishlangan oziq-ovqatlarning iste’mol qilinishi ichak florasining buzilishiga sabab bo‘ladi. Oziq-ovqatlar ichak mikrobial tizimining ishlashiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Masalan, yog‘li va shakarni ko‘p iste’mol qilish, hazm qilish tizimini o‘zgartirib, zararli mikroorganizmlarning ko‘payishiga yordam beradi. Birinchi navbatda, disbakteriozning rivojlanishiga olib keladigan omillarni ko‘rib chiqish zarur. Ushbu kasallikning eng keng tarqalgan sabablaridan biri noto‘g‘ri ovqatlanish va antibiotiklarni noto‘g‘ri qo‘llash ichak mikrobial balansini o‘zgartiradi, bu esa dizbakteriozga olib kelishi mumkin. Bu omillar ta’sirida ichakda foydali bakteriyalarni kamayishi, zararli bakteriyalarning esa ko‘payishiga sababchi bo‘ladi. Antibiotiklar, ayniqsa, uzoq muddat davomida ishlatilganida, ichak florasidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa ichak disbioziga olib keladi. Ayniqsa, kimyoviy moddalarning, masalan, pestitsidlar va konservantlarning iste’moli ham mikrobiomning salomatligini buzishi mumkin. Disbakteriozning yana bir muhim sababi stress holatlari va ekologik omillardir[3,4,6,8,11,12,19,22,24,27]. Stress gormonlari ichakdagi bakteriyalar balansini o‘zgartirishi va organizmning immun tizimini zaiflashtirishi mumkin. Ekologik omillar, jumladan, havoning ifloslanishi,

suv va oziq-ovqatda mikroorganizmlarning yuqori darajada bo‘lishi, ichak mikrobiotasining holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ichak mikrobiomining tarkibi inson organizmida o‘zgarmas ahamiyatga ega, chunki bu mikroorganizmlar ovqat hazm qilish jarayoniga, vitaminlar ishlab chiqarishga va immunitet tizimini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.Mikrobiomaning buzilishi, ayniqsa, ichak florasidagi foydali bakteriyalarning kamayishi, ichakdagi zararli mikroorganizmlarning o‘sishiga olib keladi va bu holat ichak yallig‘lanishiga, oshqozon-ichak traktidagi buzilishlarga va immun tizimi muammolariga sabab bo‘lishi mumkin. Disbakteriozni aniqlashda samarali diagnostika usullarining ahamiyati katta. Disbakteriozni aniqlash uchun bir nechta klinik va laboratoriya usullari mavjud. Laboratoriya tahlillari yordamida ichak florasining tarkibi va uning normal va patologik holatlaridagi o‘zgarishlar o‘rganiladi. Biroq, faqat laboratoriya tahlillari bilan cheklanib qolmaslik kerak, chunki klinik simptomlar ham diqqat bilan kuzatilishi lozim. Disbakteriozning asosiy simptomlariga oshqozon-ichak traktidagi buzilishlar, ich qotishi yoki diareya, shishish, hazm qilishdagi muammolar kiradi. Disbakteriozni davolashda zamonaviy tibbiyotda bir nechta yondashuvlar qo‘llaniladi. Eng asosiy davolash usuli probiyotiklar va prebiyotiklar qo‘llashdir. Probiyotiklar ichakdagi foydali bakteriyalarni tiklashga yordam beradi, prebiyotiklar esa bu bakteriyalarni oziqlantiradi va probiyotiklar va prebiyotiklar dizbakteriozning eng samarali davolash usullaridan hisoblanadi. Shuningdek, antibiotiklar va boshqa dori-darmonlarni beparvo qo‘llashdan saqlanish, sog‘lom ovqatlanish va ichak salomatligini saqlashga qaratilgan profilaktik choralarga rioya qilish zarur. Kasallikni davolashda shaxsiy yondashuv va mutaxassislar bilan maslahatlashish, kasallikning oldini olish va uning rivojlanishini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bolib oldini olishda esa eng samarali usullardan biri mikrobiomaning muvozanatini saqlashga qaratilgan turli xil dietalar va oziq-ovqatlar. Sog‘lom, tabiiy va muvozanatli ovqatlanish, ko‘p miqdorda tolali mahsulotlar iste’mol qilish, shuningdek, ichakning mikrobiotasini yaxshilash uchun probiotiklarni o‘z ichiga olgan ovqatlar juda muhimdir. Turli xil davolash usullari va profilaktik choralarga amal qilish orqali disbakteriozning oldini olish mumkin. Ekologik sharoitlarning yaxshilanishi va stress darajasini kamaytirish ham mikrobiomaning yaxshilanishiga yordam beradi [2,7,9,14,15,17,21,23,25,26].Natijada, disbakteriozning rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash va bartaraf etish, uning patogenezini to‘g‘ri tushunish va davolashda ilg‘or yondashuvlarni qo‘llash, ichak florasini saqlash va muvozanatni tiklashda muhim o‘rin tutadi. Xozirgi kunda disbakteriozga qarshi samarali davolash usullari mavjud, ammo kasallikni to‘liq bartaraf etish uchun kompleks yondashuvlar zarur.

Shunday qilib shuni takidlash mumkinki ichak florasining muvozanati organizmning umumiy sog‘lig‘iga bevosita ta’sir qiladi va disbakteriozning rivojlanishi ko‘plab kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Mikrobiomaning muvozanatini tiklashda probiyotiklar va prebiyotiklar o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Dori-darmonlar bilan davolashni faqat ichak florasining tiklanishini ta’minlash uchun yetarli deb hisoblashning noto‘g‘ri ekanligi, ratsion va ekologik

omillarni ham inobatga olish zarurligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, maqolada kasallikning oldini olishda profilaktik choralar va sog‘lom turmush tarzini joriy etishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Disbakteriozga qarshi kurashishda nafaqat tibbiyotda, balki kundalik hayotda ham amaliyotga joriy etilishi kerak. Tadqiqotda keltirilgan ma’lumotlar disbakteriozning yanada chuqurroq o‘rganilishi va davolash usullarining takomillashtirilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, kasallikni boshqarishda kompleks yondashuvlar, jumladan, farmakologik va no-farmakologik metodlarning uyg‘unlashuvi, muvaffaqiyatli natijalar olish uchun zarur ekanligi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримова, М. А., Садуллаев, О. К., Самандарова, Б. С., & Усманов, У. У. (2025). ИЗУЧЕНИЕ СТЕПЕНИ ВЛИЯНИЯ ГЕННО-МОДИФИЦИРОВАННОГО СОИ НА НОРМАЛЬНУЮ МИКРОФЛОРУ ТОЛСТОЙ КИШКИ В ЭКСПЕРИМЕНТЕ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(6), 1254-1257.
2. Садуллаев, О. К., Бабажанов, Т. И., & Бахадирова, Д. Д. (2025). ЗНАЧЕНИЕ МИКРОБИОТЫ ОРГАНИЗМА ЧЕЛОВЕКА. AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE, 3(4), 287-291.
3. Садуллаев, О. К., Бабажанов, Т. И., & Бахадирова, Д. Д. (2025). ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ. AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE, 3(4), 282-286.
4. Sokolova, E. A., Sadullaev, O. K., Samandarova, B. S., & Ilinskaya, O. N. (2024). The structure of the incidence of acute intestinal infections in children of the Southern Aral Sea region and bioimmune correction of intestinal microbiocenosis in shigellosis. Kazan medical journal, 105(2), 205-213.
5. Латипова, Ш. Б. (2021). Курбанниёзова Юлдуз Аллабергановна Ассистент кафедры фармакологии и клинической фармакологии Ургенчского филиала ТТА (Ургенч, Узбекистан). POLISH SCIENCE JOURNAL, 149.
6. Kodirovich, S. O., Bekturdievna, L. S., & Allaberganovna, K. Y. (2021). Comparative assessment of intestinal microbiocenoses of healthy children living in ecologically unfavorable conditions of the Southern Aral Sea region and in the city of Tashkent. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(3), 42-45.
7. Садуллаев, О. К., & Каримова, М. И. (2019). МИКРОБИОЦЕНОЗ КИШЕЧНИКА У ДЕТЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ В НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ, БОЛЬНЫХ ДИАРЕЕЙ С САЛЬМОНЕЛЛЁЗНОЙ ЭТИОЛОГИИ, НА ФОНЕ ЛЕЧЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫМИ МЕТОДАМИ. In СОВРЕМЕННАЯ НАУКА:

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 181-184).

8. Закиров, Ш., Садуллаев, О., Самандарова, Б., Аллаберганова, З., & Каримова, М. (2020). ИЗУЧЕНИЕ НОСИТЕЛЬСТВА ПАТОГЕННОГО СТАФИЛОКОККА (S. AUREUS) У МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА ХИРУРГИЧЕСКИХ ОТДЕЛЕНИЙ ЛПУ, АКУШЕРСКИХ СТАЦИОНАРОВ И ПОКАЗАТЕЛИ ПРИОБРЕТЕННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПО ОТНОШЕНИЮ К РАЗНЫМ АНТИМИКРОБНЫМ ПРЕПАРАТАМ. Журнал вестник врача, 1(1), 24-27.
9. Садуллаев, О., Курбаниязова, М., & Каримова, М. (2017). Корреляционный анализ взаимосвязи нарушений микрофлоры кишечника у детей, больных с диареей проживающих в условиях южного приаралья. Журнал проблемы биологии и медицины, (4 (97)), 190-191.
10. Садуллаев, О. К., & Курбаниязова, М. З. (2017). ИЗУЧЕНИЕ ПЛАЗМОКОАГУЛИРУЮЩЕЙ СПОСОБНОСТИ МИКРООРГАНИЗМОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ ФЕКАЛИИ ЗДОРОВЫХ И БОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ ДИАРЕЙНЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПРОЖИВАЮЩИХ В ЭКОЛОГИЧЕСКИ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (12-8), 48-50.
11. Садуллаев, О. К., & Каримова, М. А. (2017). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГЕМОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МИКРООРГАНИЗМОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ ФЕКАЛИИ ЗДОРОВЫХ И БОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ С ДИАРЕЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ В ЭКОЛОГИЧЕСКИ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (12-8), 51-53.
12. Садуллаев, О. К., & Сувонов, К. Ж. Турли минтакаларда яшовчи хомиладорлар огиз бушлиги махалий иммунитет омиллар холати Услубий кулланма. Ургенч.-2008.-12 б.
13. Садуллаев, О. К., & Исмаилова, Х. Г. (2023). КАК ВОЗДЕЙСТВУЕТ ПАНДЕМИЯ COVID 19 НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА В РАЗЛИЧНЫХ ВОЗРАСТАХ И ЕГО ЛЕЧЕНИЕ. МИКРОБИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ, 160.
14. Каримова, М. А., Садуллаев, О. К., Самандарова, Б. С., & Аллаберганова, З. С. (2023). Негативное влияние генетически модифицированной сои на

флору толстой кишки в эксперименте. Science and innovation, 2(Special Issue 8), 1780-1783.

15. Дусчанов, Б. А., Закиров, Ш. Ю., Садуллаев, О. К., & Самандарова, Б. С. (2023). О НОВОМ ШТАММЕ КОРОНАВИРУСА «ОМИКРОН».
16. Садуллаев, О. К., & Каримов, Р. О. (2018). АНАЛИЗ ДОСТИЖЕНИЙ И ПРОБЛЕМ ВАКЦИНАЦИИ. Современные исследования, (5), 265-268.
17. Sadullaev, O. K. (2017). REGION. ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING IN THE REGION, 2, 154.
18. Sadullaev, O. K., & Samandarova, B. S. Akhmedova M.(Urgench branch of the Tashkent Medical Academy). ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND 2017 TRAINING IN THE REGION, 138.
19. Kodirovich, S. O. PhD, associate professor. Associate professor, department of natural sciences, Urgench branch of the Tashkent medical academy e-mail: Saduilaevotanazar@ mail. ru. MODERN PROBLEMS OF TOURISM AND ECONOMICS…… 100, 44.
20. Нуралиев, Н. А., Садуллаев, О. К., & Саидов, Б. О. Способ культивирования бифидобактерий для микробиологической диагностики дисбактериоза кишечника. Рац. предложение N, 10.
21. Saduilayev, O. K. (2018). THE STUDY OF THE INTESTINAL MICROBIOCENOSIS OF CHILDREN SUFFERING FROM COLIANT DISEASES WITH TRADITIONAL METHODS. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(3), 44-47.
22. Садуллаев О.К., Улугбекова Д. К.Влияние микроорганизмов на экологию и охране окружающей среды. Jurnal of multidisiplinary innovation in science and education.2025.1.(2),376-382.
23. Садуллаев О.К.,Улугбекова Д. К.Инсон хаётида одам организмидаги микрофлоранинг ахамияти.Jurnal of multidisiplinary innovation in science and education.2025.1.(2),369-375.
24. Sadullayev O.K.,Ilyasova G. .Antibiotiklarga chidamli bakteriyalar va ularning tibbiyotga ta siri.Jurnal of multidisiplinary innovation in science and education.2025.1.(2),383-390.
25. Sadullayev O.K.,Ilyasova G. Kasalliklarni oldini olishda epidemiologik jixatlar va profilaktikaning axamiyati.Jurnal of multidisiplinary innovation in science and education.2025.1.(2),391-397.
26. Sadullayev O.Q., Shavkanova M.A., Atabayeva N.B.,Raximiy X.Sh.Mikroorganizmlarning xavfi, foydasi va kelajak imkoniyatlari . Jurnal of multidisiplinary innovation in science and education.2025.1.(3)45-52.

27. Sadullayev O.Q., Tog‘aymuratova M.K.,Atabayeva N.B.,Raximiy X.Sh.Zamonaviy tibbiyotda mikrobiologiya fanining o‘rni . Jurnal of multidisiplinary innovation in science and education.2025.1. (3) 53-60.